Hozirgi davrda jahon mamlakatlarida ro'y berayotgan global o'zgarishlar O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Chunki mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o'zining o'rniga ega. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ta'minlash ko'p jihatdan fan va ta'lim sohalarini tubdan yaxshilash bilan bog'liq. Bu 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot Strategiyasida "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" alohida ta'kidlab o'tilgan. Mazkur hujjatning 46–47-maqсадlarida: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan, ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov – kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish, davlat oliy ta'lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash, 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratib o'tilgan¹. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida ishchi kuchi tarkibining o'zgarishi

¹ "2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.



olimlar va tadqiqotchilarni iqtisodiy o'sish omillari va uning dinamikasiga qiziqishni kuchaytirdi va inson kapitali nazariyasini o'rganishni asosiy muammolardan biriga aylantirdi. Yangi O'zbekiston Strategiyasida innovatsion biznesni rivojlantirish orqali inson kapitalini, uning sifatini oshirish o'ta muhim ekanligi alohida ta'kidlangan.

Jahonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va ishlab chiqarishning sifat darajasini oshirishda inson kapitalning rolini aniqlash (ayniqsa, iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan mamlakatlarda inson kapitalni oshirish orqali barqaror o'sishni ta'minlash)ga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim yo'nalishlardan biridir. Shuning uchun inson kapitali (uning tashkiliy elementlari)ning innovatsion o'sishga ta'sirini baholash asosida uni rivojlantirishning samarali usullarini belgilash muhimdir.

Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning yangi bosqichi ustuvorliklarning sonidan sifatga o'zgarishi bilan bog'liq. O'zbekiston – 2030 strategiyasida belgilab qo'yilganidek, milliy ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirishda asosiy kafolat bo'lib, uning sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, aholi bandligi va turmush sifatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish kabi masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy o'sish aholi bandligi va salomatligi, turmush sifati, ta'lim tizimining rivojlanish darajasi va sifati hamda raqobatbardoshligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Ayniqsa, O'zbekistonda hozirgi vaqtda shakllantirilgan inson kapitali iqtisodiyotning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'la qonli qondirmaydi. Shundan kelib chiqib, innovatsion iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida inson kapitalini oshirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodiy taraqqiyotda insonning rolini baholash asrlar davomida o'rganilgan va bugungi kunga qadar ham o'rganib kelinmoqda. V.Petti, A.Smit², D.Rikardo, K.Marks, J.S.Mill, I.Fisher, A.Marshall, D.Mintzer, T.Shuls, G.Bekker³ va M.Blaug, K.Errou⁴ kabi olimlar inson kapitalini o'z fundamental asarlarida yoritishgan. J.Mintzer, L.Turou, V.Boven, M.Fischer, R.Nelson, YE.Felps⁵, R.Lukas⁶, E.Engel⁷, V.Farra⁸ va J.Vazeylarning tadqiqotlarida ham inson kapitalining zamonaviy nazariyalari keng yoritilgan.

MDH olimlar orasida inson kapitalning sifati va unga ta'sir etuvchi omillar xususida L.S.Babinina, I.Garafiyeva, S.V.Dudnikov, I.A.Kovalevich, Y.G.Odegov, G.G.Rudenko⁹, I.Ivashkovskaya, V.Kalyujniy, YE.Kolos, B.Leontyev, L.Lukicheva, B.Milner, G.Stepanova, V.Suprun¹⁰ va boshqalar ilmiy ishlanmalarida intellektual kapitaldan samarali foydalanish muammolari keng yoritilgan.

- 2 "A man educated at the expence of much labour and time to any of those employments which require extraordinary dexterity and skill, may be compared to an expensive machine" (Adam Smith. The Wealth of Nations. London: G.Routledge, 1776; New York: Modern Library, 1937.
- 3 Беккер Г. С. Человеческое поведение: экономический подход: избранные труды по экономической теории/пер. с англ. М.: ГУ - ВШЭ, 2003.; Кузнецов Ю.А., Мичасова О. В. Человеческий капитал: формирование, измерение, вклад в экономический рост // Экономический анализ: теория и практика. 2010. № 26, Соболева И. В. Парадоксы измерения человеческого капитала: научный доклад. М.: Институт экономики РАН, 2009, Соболева И. В. Парадоксы измерения человеческого капитала // Вопросы экономики. 2009. №9., Blaug M. The Empirical Status of Human Capital Theory: A Slightly Jaundiced Survey // Journal of Economic Literature. 1976. Vol.14. № 3 Resource Development International. 2004. Vol. 7, № 4., Soboлева I. Paradoxes of the Measurement of Human Capital // Problems of Economic Transition. 2010. Vol. 52, № п.
- 4 Arrow K.J. The Economic Implications of Learning by Doing // Review of Economic Studies. 1962. Vol. 29. № 1.
- 5 Nelson R. R., Phelps E. S. Investment in Humans, Technological Diffusion, and Economic Growth // American Economic Review. 1966. Vol. 56, № 1,2.
- 6 Lucas R. E., Jr. On the Mechanics of Economic Development//Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22. №1.
- 7 Oxley L., Le T., Gibson J. Measuring human capital: alternative methods and international evidence// The Korean Economic Review. 2008. Vol. 24. № 2.
- 8 Farr W. The Income and Property Tax // Journal of the Statistical Society of London. 1853. Vol. 16, № 1.
- 9 Абдурахманов К.Х., Бабынина Л.С., Одегов Ю.Г. Управление человеческими ресурсами организации. –Ташкент: Фан, 2020. –252 с.; Одегов Ю.Г. Экономика труда: учебник и практикум для академического бакалавриата. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: Юрайт, 2015, Ковалевич И.А. Человеческий капитал системы образования: учебник. - Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2018. 216 с. Гарафиев И.З. Социальный заказ на инновационный человеческий капитал: монография. - Казань: Казанский национальный исследовательский технологический университет, 2016. - С. 208.
- 10 Ивашковская И.В., Байбурина Э.Р. Роль интеллектуального капитала в создании стоимости крупных российских компаний: опыт эмпирического исследования. // Вестник Финансовой академии, 2007; Калужный В.В. Усовершенствованные и новые методы измерения влияния капитала, труда и производительности на рост ВВП // Экономика Украины. – 2003. – № 6. – С.42–48; Колос Е.А. Тенденции и пути развития человеческого капитала и интеллектуального потенциала казахстанского общества // Основы экономики, управления и права, 2014 – №4(16). - С.123-126; Леонтьев Б.Б., Леонтьева В.Б. Интеллектуальная природа. Системное мышление. Интеллектология. Идеология. – М.: РАЕН, Издательство "РИНФО", 2019. - С.518.; Лукичева Л. И. Управление интеллектуальным капиталом. - М.: Омега-Л, 2007. - С.552; Мильнер Б.З. Управление знаниями: эволюция и революция в организации. – М.: Инфра-М, 2003. - С.177; Степанова Г.Н., Филонова А.С., Губанова Н.В. Развитие интеллектуального потенциала личности в XXI веке: монография. –М.: Изд-во "Мир науки", 2019. - С.132; Супрун В.А. Интеллектуальный капитал. Главный фактор конкурентоспособности экономики в 21 веке. - М.: КомКнига, 2006. - С.192.; Бараева Ю.В. Интеллектуальный капитал – ключевой конкурентный фактор Российской экономики/ Вестник КГУ им Н.А. Некрасова, 2006. №6.



Mamlakatimiz olimlaridan: akademik Q.X.Abduraxmanov, professorlar B.X.Umurzakov, SH.D.Kudbiyev, Z.Y.Xudoyberdiyev, SH.X.Nazarov, N.Q.Zokirova, N.U.Arabov, N.X.Raximova, B.A.Islamov, B.SH.Maxkamov, G.K.Abduraxmanova, X.X.Mamadaliyeva, D.A.Nasimov, R.R.Xasanov¹¹ va boshqalarning ilmiy ishlarida inson kapitali va innovatsion rivojlanishni faollashtirishning nazariy, uslubiy va institusional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlari va ilmiy ishlari inson kapitali shakllanishi, rivojlanishi va amal qilishining nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi texnologik tartibdagi global o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu, o'z navbatida, innovatsiyalarga asoslangan raqobatdosh ustunliklarni o'zgartirishga yordam beradi. Innovatsiyalar ko'p jihatdan klassik biznes (moliya, uskunalar, mehnat) bilan solishtirganda qimmatroq va samaraliroqligi bilan ajralib turadi. Binobarin, zamonaviy dunyoda iqtisodiy tizimlar rivojlanishining yangi bosqichi tashkilot xodimlarining intellektual kapitaliga asoslanadi. Hozirgacha inson kapitali bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda innovatsion iqtisodiy rivojlanishning obyektiv ehtiyojlariga asoslangan tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirishga chuqur ahamiyat qaratilgan.

Shumpeter tadqiqotlariga ko'ra¹², "iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" tushunchalari farqlanadi. Uning fikricha, iqtisodiyotning rivojlanishi, innovatsiyalar oqimidir. Innovatsiyalar - jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlariga xos bo'lgan ixtirolardan farqli o'laroq, inson innovatsiyalarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga texnologik taraqqiyot va raqobatdosh ustunliklarni ta'minlaydigan ilmiy yutuqlarni amalga oshirishning maxsus tashkiliy shaklidir. Tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarish omili sifatida, birinchi navbatda, boshqaruv faoliyatining o'ziga xos sifatini, uning biznesni yuritishga yo'naltirilganligini, xususan, innovatsiyalarni yaratish va ilgari surish asosida ishlab chiqarish resurslarini tayyor mahsulotga oqilona va samarali aylantirishni tavsiflaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Insonda tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish korxonaning raqobatdoshligini ta'minlash shartlaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik qobiliyatlari ta'lim darajasiga, shaxsning o'z ehtiyojlariga, o'qituvchilarning malakasi va kasbiy fazilatlariga, o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari va usullariga, ish beruvchilarning talablariga, ta'lim muassasasining umumiy korporativ madaniyatiga, shuningdek, ta'lim muassasasining kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlari mavjudligiga bog'liq. Biroq, ushbu fazilatlar inson kapitalining elementlaridan biri sifatida maksimal darajada rivojlantirish uchun boshqa barcha omillarning ijobiy ta'siri zarur.

"Tadbirkorlik ruhi bilan" ishlab chiqarishning rivojlanishi raqobat nazariyasi va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'liq mos keladi. Biroq, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida iqtisodiy rivojlanishni belgilovchi yangi asosiy omillar paydo bo'ldi. Ularga, eng avvalo, axborot texnologiyalari va bilimlar kiradi. "Bilimlar iqtisodiyoti" kabi tushuncha paydo bo'lishi tasodif emas. Ikkalasi ham inson kapitali sifatiga qo'yiladigan yangi talablar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu yangi xodisalarni o'rganuvchilar "innovatsiyalarni ommaviy ishlab chiqarish va innovatsion iqtisodiyotni yaratishning asosiy omili to'plangan yuqori sifatli va ijodiy inson kapitalidir".

- 11 Абдурахманов К. Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Фан, 2019. - 418 б.; Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики. – Москва: ФГБОУ ВО "РЭУ им. Г.В.Плеханова", 2023, - 356 с.; Умурзаков Б. Х. Человек и его потенциал в условиях экономики будущего //Технические университеты: интеграция с европейскими и мировыми системами образования. – 2014. – С. 416-419; Абдурахманов К.Х., Зокирова Н.К. Человеческое развитие: учебник. – Т.: ФГБОУ ВПО "РЭУ им.Г.В.Плеханова", 2014. – 320 с.; Зокирова Н. К. Интеллектуальный капитал в инновационной экономике Узбекистана // Наука и практика. – 2013. – №. 3. – с. 35; Арабов Н.У. Ўзбекистон Республикасида меҳнат бозори инфратузилмасини ривожлантириш самардорлигини ошириш. - Т.: Fan va texnologiya, 2017. - 270 б.; Насимов Д.А. Иқтисодиётнинг инновацион ривожланиши шароитида иш билан бандлик эгилувчанлигини таъминлаш механизмларини такомиллаштириш. - Т.: Fan va texnologiya, 2018. - 260 б.; Хасанов Р.Р. Ижтимоий-иқтисодий тараққиётда хонадоннинг ўрни // Иқтисод ва молия. - 2015. - №10; Abdurakhmanov K.H. Zokirova N.K., Islamov B., Hiwatari. Systemic transformation and sustainable human development: the Case of Uzbekistan. Jakarta: Gunadarma Publisher, 2016. - 230 p.; Назаров Ш.Х. Минтақавий иқтисодиёт ва бошқарув. Дарслик. - Т.: "Renessans" нашриёти, 2021. – 196 б.; Худойбердиев З.Я. ва б. Тadbirkorlik va ishga joylashтириш технологияси. Ўқув қўлланма. - Т.: Ilmziyo, 2016; Кудбиев Ш.Д. Роль МОТ в формировании и регулировании рынка труда молодежи // General question of world science. – 2019. – С. 50-55.; Махкамов Б.Ш. Управление человеческим капиталом и лидерство. Учебное пособие. - Т.: Фан ва технология, 2019. - 138 с.; Рахимова Н.Х. Женщина и предпринимательство в Узбекистане // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. – 2006. - № 2(78). – С. 134-139; Мамадалиева Х.Х. Аҳолини сифат жиҳатдан ривожланишида оиланинг роли. – Т.: Global Books, 2017. – 124 б.; Абдурахмонова Г.Қ., Рустамов Д.Ж. "Инсон капиталини рақамли иқтисодиёт асосида ривожлантириш йўналишлари". Монография. – Beau Bassin: "GlobeEdit" Publisher, 2020. – 127 б.
- 12 Шумпетер И. А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982.



Ko'rinib turibdiki, innovatsiya – bu raqobatbardoshlikning modifikatsiyasi, uning zamonaviy namoyon bo'lish shakli bo'lib, u rivojlanishning ma'lum bir bosqichida raqobatbardoshlikning ajralmas elementi sifatida ham, ma'lum bir faoliyat turidagi tashkilot faoliyatining nisbatan mustaqil mulki (belgisi) sifatida ham mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, fan sohasida, ayniqsa fundamental innovatsiya uning immanent mulki bo'lib, ushbu ilmiy bilim sohasining raqobatbardoshligi uning hosilaviy shakli hisoblanadi. Biroq, ikkala holatda ham raqobatbardoshlikning asosiy darajasi xodimlarning raqobatbardoshligi va innovatsiyalarga yo'naltirilgan tashkilotlar uchun ularning xodimlarining innovatsionligi hisoblanadi. U mahsulot yoki xizmatning innovatsion raqobatbardoshligi darajasini, tashkilot, sanoat, mintaq va nihoyat, mamlakat darajasida shakllantiradi. Ularni tahlil qilish va ushbu konsepsiyaning mohiyatini tushunish bizga quyidagi ta'rifni berishga imkon beradi: xodimlardagi innovatsionlik - bu yangi bilimlarni yaratish, uni yangi texnologiyalar, mahsulotlar, vakolatlar, tashkiliy modellarga aylantirish, ularni amalga oshirishni ta'minlash, biznesning narxini va tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish qobiliyatidir. Shunday qilib, xodimlar ikkita o'zaro bog'liq xususiyatga ega bo'lishlari zarur – raqobatbardoshlik va innovatsion.

Inson kapitalining o'ziga xos xususiyati, yangi bilimlarni yaratish qobiliyatidir, bu “kadrlar innovatsiyasi” tushunchasida ifodalangan, uning innovatsion tarkibiy qismini shakllantirish orqali inson kapitali nazariyasini joriy etishda aks etadi. Aslida, innovatsiya har qanday faoliyat turining samaradorligini oshirish maqsadini ko'zlaydi va asosiy muammo nafaqat yangi g'oyani topishda, balki innovatsiyalarni moddiy qo'llab-quvvatlashda hamdir. Ushbu yondashuv doirasida inson kapitali, shuningdek uning samaradorligi, bizning holatlarimizda, uni amalga oshirish natijasida olingan daromad hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotiga innovatsiyalarni joriy etishning kaliti inson kapitali va yuqori sifatli davlat boshqaruvi bo'lib, ular innovatsion biznes uchun qulay sharoit yaratadi. Davlat tomonidan talabning shakllanishi innovatsiyalar tizimini yaratishning birinchi bosqichidir.

Innovatsion biznes – bu olingan bilim, ko'nikma, olingan uskunalar va texnologiyalarni tijoratlashtirishga qaratilgan texnologik, ilmiy, moliyaviy va tijorat harakatlarining majmui¹³. Bu taqdim etilayotgan mahsulotlar yoki xizmatlar sifatini yaxshilash, yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Innovatsion biznesni ikki nuqtai nazardan ko'rish mumkin¹⁴:

- innovatsiyalar o'z biznesining asosiy turi bo'lmagan kompaniyalarning strategik ustunligini ta'minlash vositasi sifatida;

- mahsuloti boshqa sohalaridagi innovatsiyalar uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan aniq ilmiy, texnik va boshqa natijalar bo'lgan biznes turi sifatida.

Innovatsion biznesni rivojlantirish zarurati quyidagi omillar bilan bog'liq:

- iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida innovatsiyalarni qo'llashga yordam beradigan ishlab chiqarishni rivojlantirishning intensiv omillari rolini oshirish;

- yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ilm – fanga joriy etish samaradorligini oshirish;

- yangi texnologiyalarni yaratish, rivojlantirish vaqtini sezilarli darajada qisqartirish, ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish, ixtirochilar va innovatorlarning ommaviy ijodkorligini rivojlantirish zarurati;

- ilmiy-texnik ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, natijalarning noaniqligi, tadqiqotning ko'p o'zgaruvchanligi, xavf mavjudligi va salbiy natijalarni olish imkoniyati bilan ifodalanadi;

- yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarining yomonlashishi;

- uskunalar va texnologiyalarning tez eskirishi;

- yangi uskunalar va texnologiyalarni jadal joriy etishning obektiv zarurati va boshqalar.

Shunga ko'ra, ikkita innovatsion biznes modelni ajratish mumkin. Birinchi model klassik (an'anaviy, reproduktiv, muntazam) bo'lib, u tadbirkorlik tashkilotiga mavjud bo'lgan resurslarni maksimal darajada qaytarish maqsadida faoliyatni tashkil etishga qaratilgan bo'ladi. Klassik biznes modelida ishlab chiqarish o'sishini boshqarish konsepsiyasi shakllantirilgan bo'lib, uni amalga oshirish subsidiyalashning tashqi omillari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tufayli faoliyatni amalga oshirish uchun vaqt talab etadi. Bundan tashqari, kompaniyaning ichki xaziralari ham uning faoliyati samaradorligini oshirish uchun ishlatiladi.

Ikkinchi model innovatsion tadbirkorlik (biznes) bo'lib, u korxonalarni rivojlantirishning yangi usullarini izlashni o'z ichiga oladi, bu o'z navbatida, o'sishni boshqarish yoki innovatsiya tushunchasi haqida gapirishga imkon beradi. Shuning uchun innovatsion tadbirkorlik butunlay innovatsiyalarga asoslanib, bunday faoliyat natijasida yangi mahsulot yoki yangi xususiyatlarga ega mahsulot yoki yangi texnologiyalar yaratishga zaruriyat tug'diradi.

Innovatsion biznes - bu doimiy ravishda yangi imkoniyatlarni izlash, innovatsiyalarga e'tibor qaratish, doimiy muammolarni hal qilish uchun turli xil manbalardan resurslarni olish va ulardan foydalanish qobiliyatiga

¹³ <http://utmagazine.ru/posts/8639-innovacionnyy-biznes#sthash.3UiAzVG9.dpuf>

¹⁴ Г.Я. Гольдштейн Основы Менеджмента. Учебное пособие, изд 2-е, дополненное и переработанное. Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2003.



asoslangan korxona va umuman mamlakat iqtisodiy rivojlanishining maxsus innovatsion jarayoni. Bu tadbirkorning yangi loyihani amalga oshirish yoki mavjud loyihani takomillashtirish bilan bog'liq barcha xavflarini ixtiyoriy ravishda o'z zimmasiga olishga, pul daromadlari va shaxsiy qoniqishni keltirib chiqarishi kerak bo'lgan jarayon uchun moliyaviy, ma'naviy va ijtimoiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorligi bilan tavsiflanadi.

Innovatsion biznesning o'ziga xos xususiyatlari, xodimlarning yuqori malaka darajasini belgilaydi. Shu bilan birga, qobiliyatlarini nusxalash qiyin bo'lgan yuqori g'ayratli va iste'dodli mutaxassislar tashkilotning raqobatbardosh ustunligi hisoblanadi. Yuqori malakali xodimlar yuksak darajadagi inson kapitaliga ega bo'lib, ular o'z bilimlari yordamida innovatsiyalarni takomillashtirishga qodir.

Firma nazariyasiga ko'ra, inson resurslari uning o'sish chegaralarini nazorat qiladi. Bunday holda, boshqaruv kompetensiyasining o'sishi strategik maqsadga aylanadi: "raqobatbardosh ustunlikning yagona barqaror manbai bu "o'rganish" qobiliyatidir.

Natijada, bugungi kunda insonning biznes g'oyalari va tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish raqobatbardosh iqtisodiyotda xodimning ajralmas fazilatlaridan ekanligi ayon bo'ladi. Natijada tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatning kuchayishi, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, iste'molchilarning imtiyozlari o'zgarishi kadrlar tayyorlashga yangi talablar qo'ymoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, inson kapitali innovatsion rivojlanish omili sifatida xodimlarning vakolatlarini, masalan, nou-xau, ko'nikma, qobiliyatlarni, shuningdek ularning tashkilot oldidagi majburiyatlarini, masalan, kompaniyada ishlashga tayyorligini o'z ichiga olishi kerak. Bilimga asoslangan raqobatbardosh ustunlik barqarordir, bilimga ega bo'lish va o'rganish qobiliyati firmalar uchun asosiy strategik resurslarga aylanadi.

Har qanday tashkilot uchun ijodiy biznes g'oyalar yanada samarali investitsiyalarni hisobga oladi, buning natijasida u o'zi uchun raqobatbardosh ustunliklarni yaratishi mumkin. Yangi g'oyalarni izlash va ularni amalga oshirish tadbirkorning eng muhim, ammo ayni paytda qiyin vazifalaridan biridir, chunki bu holda tadbirkorga nafaqat ijodiy fikrlash va yangi yechimlarni topish qobiliyati, balki kelajakda shakllanayotgan ehtiyojlarni kutib, istiqbolli fikrlash ham kerak. Innovatsionlik tadbirkorlikning maxsus vositasi bo'lib, tadbirkorlar innovatsion fikrlash turi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. "O'zbekiston" нашриёти, 2021 й.
2. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт. Дарслик, ЎЗР ФА "FAN" нашриёт давлат корхонаси, Т.: 2019й. – 592 б.
3. Абдурахмонов Қ.Х. Инсон тараққиёти. Дарслик, "Fan va texnologiyalar" нашриёти, 2013 й.
4. Оксфордский толковый словарь по бизнесу. М.: Прогресс – Академия, 1995, стр.296.
5. Абалкин Л.И. Стратегический ответ России на вызовы нового века. Под ред. Л.И.Абалкина М.: Экзамен, 2004. Стр.
6. Черниченко Т.А. Теоритические аспекты управления человеческим капиталом. Вестник Российского государственного гуманитарного университета. 2011, №10. стр 158.
7. Генкин Б.М. Экономика и социология труда: Учебник для вузов. 5 издание, доп. М.: Норма, 2003, стр 53.
8. Умурзаков Б.Х. Основные критерии оценки развития человеческого потенциала и их характеристики//Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы. Монография под ред. Акад. Р.А.Убайдуллаевой. – Т., 2012. – С. 183-192.
9. Ostanova, M. E. (2024). Human Capital as a Factor of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827), 2(3), 14-20.
10. Ostanova, M. (2023). Innovatsion o'sishga inson kapitali ta'sirining zamonaviy yondashuvlari.
11. Ochilov, A. O., & Ostanova, M. E. (2023). The Most Important Factor In Economic Growth–Human Capital. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(12), 127-132.
12. Ruziev, Z. I., Kadirov, L. K., Ostanova, M. E., Baratov, B. S., & Ortiq, S. (2020). The role of income tax individuals in replenishing state budget revenues. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2033-2037.
13. Останова, М. Э. (2021). Занятость как критерий эффективности использования трудового потенциала экономики (на примере Республики Узбекистан). Государственное и муниципальное управление. Ученые записки, (3), 82-88.
14. Nabiev, D. X., Ochilov, A. O., Raimova MJ, O. M., & Normurodova, Z. E. Features of the impact of higher education on the economic growth of the Republic of Uzbekistan. Central European Management Journal. Poland, ISSN, 2336-2693.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

